

“Maqsad” tariflar tizimi

“Maqsad” tariflar tizimi yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar (keyingi o‘rinlarda – “yakka tartibdagi tadbirkor”) hamda ularning hamkorlari/ishchilari bo‘lgan Prepaid tizimi abonentlariga mo‘ljallangan.

1. Qo‘shimcha ma‘lumot

Tariflar tizimiga quyidagi shartlar asosida ulanish mumkin:

- Yakka tartibdagi tadbirkorning hamkorlari/ishchilari uchun. O‘z pasportining asli hamda mavjud bo‘lsa – to‘ldirilgan Sertifikat (Yakka tartibdagi tadbirkorlar va ularning hamkorlari/ishchilari uchun Prepaid tizimidagi korporativ tarif rejasini ulash Sertifikati) taqdim etilishi lozim.
- Tarif rejalar yangi ulanishlar va “Maqsad” tizimi ichidagi amaldagi tariflarga o‘tish uchun mavjud. Tarifni o‘zgartirish narxi — 0 UZS. USSD so‘rov: *120#.
- Tariflar tizimi ichida o‘z tarif rejasini amaldagisidan yuqoriroq tarif rejasiga almashtirishda limitlar saqlanib qoladi.
- Tariflar tizimi ichida o‘z tarif rejasini amaldagisidan quyiyoq tarif rejasiga almashtirishda limitlar bekor qilinadi.
- “Restart” xizmati *222# USSD-so‘rovi yordamida faollashtiriladi.
- “Maqsad” tariflar tizimi abonentlari uchun quyidagilar amal qiladi: “Sizga qo‘ng‘iroq qilishdi”, “Qulay daqiqalar”, “Raqamni saqlab qolish” xizmatlari, Yangi oylik internet-to‘plamlar, Oylik internet-to‘plamlar, “Metroda Ucell cheksiz internet-to‘plamlari” (faqat “Cheksiz 30 kun” to‘plami), “Al Chiroq” aksiyasi, “Yangi oylik internet-to‘plamlar” (“Doimiy”, “Sof” uchun), “SO TAS-IX 8000/14000/20000” to‘plamlari, “Trafik+”, “Mediabay.uz” media-portali, “iTV” xizmati.
- “Maqsad” tariflar tizimi abonentlari uchun quyidagilar amal qilmaydi: “Tarmoq ichida qulay” va “O‘zbekiston bo‘yicha qulay” to‘plamlari, Kunlik va Haftalik internet-to‘plamlar, “Kunlik SMS-to‘plamlar”, “Tungi internet”, “Buyurtma to‘plam”, “Soatbay internet”, “Oylik 4G internet-to‘plamlar” hamda “Maksimal internet” xizmatlari, “Qadrdonlar!” sodiqlik dasturi va “U+” sodiqlik dasturi.

2. Oylik abonent to‘lovining yechilishi va limitlarning belgilanishi:

- Abonentning tarif rejasiga ulanish/o‘tish sanasi oylik davrda oylik abonent to‘lovining yechilish sanasi hisoblanadi.
- Tarif rejasiga yangi ulanishda/o‘tishda, agar hisobda yetarlicha mablag‘ bo‘lsa, oylik abonent to‘lovi va limitlar to‘liq hajmda (qolgan kunlar uchungina emas) yechiladi/belgilanadi.
- Hisob manfiy holatda bo‘lsa yoki unda tarif bo‘yicha oylik abonent to‘lovining yechilishi uchun mablag‘ yetarli bo‘lmasa, u holda abonent to‘lovi yechilmaydi, tarifda ko‘zda tutilgan trafik limitlari belgilanmaydi, abonent raqamining hisobi qarzga kirmaydi.
- Oylik abonent to‘lovi tarif rejasi bo‘yicha oylik abonent to‘lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to‘lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi bo‘yicha abonent to‘lovining so‘nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi.
- Tarif doirasida oylik abonent to‘lovining yechilishi hamda oylik limitlarning belgilanishi soat 00:00 dan 08:00 gacha bo‘lgan davrda (yechilish vaqti qat‘iy belgilanmagan) amalga oshadi. Oylik abonent to‘lovining to‘liq hajmda yechilishi uchun abonent hisobida mablag‘ yetarli bo‘lishi kerak.
- Agar oylik abonent to‘lovining yechilish paytida abonent hisobida to‘lovning yechilishi uchun mablag‘ yetarli bo‘lmasa, u holda abonent raqami bloklanadi. Toki hisobda abonent to‘lovining to‘liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag‘ bo‘lmagunicha abonent to‘lovi yechilmaydi.

- Abonent hisobi abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirilishi bilan oylik abonent to'lovi darhol yechiladi. Abonent to'lovi yechilganidan so'ng abonent raqami faol holatga o'tadi va tarif rejasi shartlariga muvofiq limitlar belgilanadi. Keyin oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi, ya'ni, tarif rejasi bo'yicha navbatdagi oylik abonent to'lovi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi so'nggi marta samarali yechilgan kundan boshlab bir oylik oraliqda yechiladi.

Narxlash

Yo'nalishlar bo'yicha narxlash	
Tarmoq ichidagi va tarmoqdan tashqari qo'ng'iroqlar uchun chiquvchi daqiqa narxi (berilgan limitdan tashqari)	25 so'm
1 MB internet narxi	25 so'm
O'zbekiston bo'yicha chiquvchi SMS narxi (berilgan limitdan tashqari)	25 so'm
Xalqaro SMSlar	1 500 so'm
Limitlarni tekshirish: *100# – daqiqalar va SMSlar, internet-trafik MBlari	

3. Bloklash shartlari:

- Raqam musbat balansda (tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi yechiladigan paytda hisobda yetarli miqdorda mablag' bo'lmasa) yoki manfiy balansda (tegishli qo'shimcha xizmatlar mavjud bo'lsa) bloklanadi.
 - Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar joriy davr uchun tarif bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilganidan keyingina belgilanadi. Tarif rejasi shartlariga ko'ra oylik limitlar, shuningdek, tarif rejasi shartlariga ko'ra yuqorida ko'rsatilgan resurslarga cheksiz internet-trafik belgilangan kundan boshlab 1 oy muddatga taqdim etiladi. Joriy davrda belgilangan oylik limitlarning qoldiqlari keyingi davrga o'tkazib berilmaydi.
 - Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, albatta oldindan hisobni oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirishni va tarif rejasi bo'yicha limitlar belgilanganligini *100# USSD-so'rovi yordamida tekshirib olishni tavsiya etamiz.
 - Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar sarflab tugatilgach, qo'ng'iroqlar va SMSlar tarif rejasi shartlariga ko'ra yo'nalishlar bo'yicha limitdan tashqari qiymatiga muvofiq narxlanadi.
 - Tarif rejasi va qo'shimcha internet-to'plamlar doirasidagi oylik internet-trafik limitlari sarflab tugatilgach, internetga kirish imkoni to'xtatiladi. Bunda abonent internetni qayta ishga tushiruvchi havolali SMS oladi. Internetdan foydalanishni davom ettirish uchun, abonent quyidagi opsiyalardan birini tanlashi va unga muvofiq internetdan foydalanishda davom etishi lozim bo'ladi:
 - Tarif bo'yicha limitlarni yangilash ("Restart" xizmatini faollashtirish);
 - Internet-to'plam xarid qilish;
 - 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish*
- * Agar abonent 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish opsiyasini tanlasa, keyin Oylik internet-to'plam xarid qilsa, u holda qo'shimcha to'plam limitlari tugaganidan so'ng toki tarif bo'yicha abonent to'lovining navbatdagi yechilishiga qadar internet tarif rejasi shartlariga muvofiq 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha narxlanadi. "1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish" opsiyasini abonent *727# USSD-so'rovi yordamida mustaqil tarzda ham tanlashi mumkin.
- Internetga kirish cheklangan holatida to'lov ilovalaridan offline rejimida foydalanmoqchi bo'lsa, ularning to'g'ri ishlashi uchun abonent o'z qurilmasida ma'lumot uzatish rejimini o'chirishi lozim.

4. Ijtimoiy tarmoqlar uchun taqdim etiluvchi internet-trafik shartlari:

- Tarif rejasi doirasidagi ijtimoiy tarmoqlar uchun taqdim etiluvchi internet-trafik shartlari roumingdagi abonent raqamlariga tatbiq etilmaydi;
- Tarif bo'yicha ijtimoiy tarmoqlar uchun taqdim etiluvchi internet-trafik Facebook, Instagram, Telegram, WhatsApp va YouTube mobil ilovalarining yuklab olinishiga va yangilanishiga tatbiq etilmaydi;
- Telegram, WhatsApp, Instagram va Facebook Messenger ilovasi orqali audio/videoqo'ng'iroq qilganda ijtimoiy tarmoqlar uchun taqdim etiluvchi internet-trafik emas, balki tarif rejasida berilgan umumiy limit yoki internet to'plamlar doirasidagi internet-trafik sarflanadi.
- Agarda aloqa xizmatlaridan oqilona foydalanish masalasida shubhalar yoki bahsli vaziyatlar yuzaga kelsa, "COSCOM" MChJ Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish yoki Mijozning tarif rejasini almashtirish huquqiga ega.

5. "Restart" xizmatining shartlari:

- "Restart" xizmati *222# USSD-so'rovi yordamida faollashtiriladi;
- "Restart" xizmatidan abonentlar raqam Faol holatda bo'lganida foydalana oladilar;
- "Restart" xizmati abonentga mustaqil tarzda oylik abonent to'lovining yechilishini tashkillashtirish hamda tarif rejasi shartlari bo'yicha oylik limitlarni olish imkonini taqdim etadi. "Restart" xizmati samarali faollashtirilganidan so'ng abonentning oylik davri mazkur xizmatning so'nggi marta samarali faollashtirish sanasiga muvofiq yangilanadi;
- "Restart" xizmatini faollashtirganidan so'ng abonent hisobidan to'liq qiymatda oylik abonent to'lovi yechiladi va abonentning tarif rejasi doirasida to'liq oylik limitlar belgilanadi. Keyin, abonentda oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi;
- Xizmatni faollashtirish uchun abonent hisobida oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lishi lozim. "Restart" xizmatini faollashtirganidan so'ng tarif bo'yicha abonent to'lovi yechiladi va to'liq hajmda limitlar belgilanadi;
- "Restart" xizmati samarali faollashganida, tarif rejasi doirasida oldin belgilangan limitlar (O'zbekiston bo'yicha SMSlar va MBlar) qoldiqlari bekor qilinadi;
- Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilish kunida "Restart" xizmatini faollashtirib bo'lmaydi;
- "Restart" xizmatidan sutkasiga faqat 1 marta (joriy sutkaning boshidan, 00:00 dan 23:59 gacha) foydalanish mumkin;
- Ulanish yoki tarif rejasini almashtirish kunlarida "Restart" xizmatini faollashtirib bo'lmaydi.

Diqqat:

- Tarif rejalariga shartlariga ko'ra taqdim etilgan daqiqalar axborot-ko'ngilochar xizmatlarga hamda xalqaro yo'nalishlardagi qo'ng'iroqlarga sarflanmaydi.
- Tarif rejalariga doirasida taqdim etilgan limitlar roumingdagi abonentlar uchun amal qilmaydi.

5G tarmog'idagi qo'shimcha internet-trafik hajmining shartlari:

- Tarif rejasi doirasida berilgan 5G tarmog'idagi internet-trafik hajmi 5G tarmog'ida amal qiladi va sarflanadi hamda sarflanish tartibiga ko'ra eng yuqori ustunlikka ega;
- 5G hajmi to'liq sarflab tugatilsa, internet tarif rejasining amaldagi shartlariga muvofiq narxlanadi;

- Qoldiqlarni tekshirish: *100#, *900# (SMS-bildirishnoma ko‘rinishida), Ucell mobil ilovasida;
- Tarif rejasini almashtirganda 5G internet-trafik hajmi bekor qilinadi;
- Internet-trafik shartlari roumingdagi abonentlarga tatbiq etilmaydi.

Xizmatning batafsil shartlari

- Tarif rejasi doirasidagi 5G tarmog‘idagi oylik internet-trafik limiti joriy davr uchun tarif bo‘yicha oylik abonent to‘lovi samarali yechilganidan keyingina belgilanadi. 5G internet-trafik hajmi belgilangan sanasidan boshlab 1 oyga taqdim etiladi.
- 5G internet-trafik hajmi raqam Bloklangan holatda amal qilmaydi.
- Ucell 5G xizmati o‘chirilsa, 5G internet-trafik hajmidan foydalanib bo‘lmay qoladi. Ucell 5G xizmati qayta yoqilganida 5G internet-trafik hajmidan uning amal qilish muddatiga muvofiq foydalanish mumkin bo‘ladi.
- Tarif rejasi va qo‘shimcha internet-to‘plamlar bo‘yicha barcha yo‘nalishlarga berilgan oylik internet-trafik limiti to‘liq sarflab tugatilganida internetga kirish imkoni to‘xtatiladi. Bunda, faqat internetdagi so‘rovlar katta hajmdagi ma‘lumot almashishni hamda internetning yuqori tezligini talab qilgan hollardagina 5G tarmog‘idagi internet-trafik hajmidan 5G tarmog‘ida foydalanish mumkin bo‘ladi va sarflanadi.
- Smartfonning yoki boshqa qurilmalarning ulanish nuqtasi orqali internetni tarqatishda, faqat internetdagi so‘rovlar katta hajmdagi ma‘lumot almashishni hamda internetning yuqori tezligini talab qilgan hollardagina, berilgan 5G internet hajmidan foydalanish mumkin bo‘ladi.
- Proksi-serverlar yoki VPN orqali ulanishda, internet-trafik berilgan 5G hajmi doirasida sarflanmaydi.
- “Cheksiz 5G internet” maxsus taklifi doirasidagi cheksiz internet-trafikning sarflanish ustunligi tarif rejasi doirasida 5G tarmog‘ida taqdim etiluvchi internet-trafik hajmlariga nisbatan yuqori.

5G xizmatining shartlari:

- 5G xizmatini 8111 raqami orqali Call-markazda, shuningdek Kompaniyaning o‘z ofislarida faollashtirish mumkin.
- Xizmatni Ucell mobil ilovasida, Kompaniyaning o‘z ofislarida, shuningdek 8111 raqami orqali Call-markazda o‘chirish mumkin.
- Xizmat bepul taqdim etiladi.
- Xizmatni quyidagi holatlarda faollashtirish mumkin: active, idle.

Eslatma:

- 1 - 5G tarmog‘ida ovoz uzatish va USSD-so‘rovlar amal qiladi (bunda tarmoq rejimi 3G/2G standartiga yoki VoLTE xizmati faol bo‘lsa – 4G standartiga o‘tadi);
- 2 - 5G tarmog‘ining amal qilishi ko‘plab omillarga bog‘liq. Shu jumladan, mobil qurilmaning ishlab chiqaruvchi tomonidan o‘rnatilgan dasturiy ta‘minotiga. Shuni inobatga olishingizni so‘raymizki, ayrim mobil qurilma ishlab chiqaruvchilar 5G tarmog‘idan foydalanishni dasturiy ta‘minot darajasida vaqtincha cheklashmoqda, chunki tarmoq qamrovi kamligi tufayli 5G tarmog‘idan foydalanishda qiyinchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Muhim!

- Standart holatga ko‘ra, 5G tarmog‘idagi qurilmalar avtomatik tarzda barqarorroq bo‘lgan 4G LTE tarmog‘iga qaytishi mumkin va, mos tarzda, bunda internet-trafik 5G limitlaridan sarflanmaydi.

Masalan, quyidagi vaziyatlarda shunaqa bo‘lishi mumkin:

- internetdagi so‘rovlar katta hajmdagi ma‘lumot almashishni hamda internetning yuqori tezligini talab qilmasa;

- abonent 5G tarmog'ining qamrov hududini tark etsa yoki signal sifati barqaror ishlash uchun yetarli bo'lmay qolsa;
- 5G rejimida qurilmalar dastlabki bog'lanish va boshqarishni yo'lga qo'yish (signallashtirish) uchun 4G LTE tarmog'idan foydalanadi, keyin esa ma'lumot almashish uchun 5G tarmog'iga o'tadi.

Bunda smartfonda 5G tarmog'ining belgichasi aks etib turishi mumkin.

Bunday holatlarda, 5G NSA texnologiyasi xususiyatlaridan kelib chiqib, internet-trafik sarfi to'g'ri deb hisoblanadi va Kompaniya tomonidan korrektirovkalash amalga oshirilmaydi.